

## “TOSHKENT YO‘LOVCHI VAGONLARNI QURISH VA TA’MIRLASH ZAVODI” AJ KORXONASINING MOLIYAVIY NATIJASI TAHLILI

Xaydarqulova Shahrizoda Inomjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

shahrizodaxaydarqulova02@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Babaxanova Nilufar Usmandjanovna

Toshkent davlat transport universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: Lunalika1@mail.ru

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada temir yo‘l transporti faoliyatida moliyaviy tahlilning o‘rnini, hamda “Toshkent yo‘lovchi vagonlarni qurish va ta’mirlash zavodi” ning moliyaviy holat barqarorligi tahlili orqali ma’lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni qanday boshqarganligi, taqsimlanishi ko‘rsatkichlari va ishlash chiqarish ko‘rsatkichlariga baho beriladi.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy mustahkamlik ko‘rsatkichi, korxona barqarorligi, moliyaviy koeffitsiyentlar, korxona pul mablag’lari, xarajat ko‘rsatkichlari va daromadlar miqdori.

### KIRISH

Taqdidotning muhimligi tashkilotni rivojlantirish, uning xodimlari va egalari manfaatlarini ta’minalash jarayonida, kelgusida rivojlanishini rejalashtirishda samaradorlikning pasayishi va moliyaviy o‘sish zaxiralalarini ta’minalashda foydaning yuqori roli va samarali boshqaruvga bo‘lgan ehtiyojni belgilashda yordam beradi. Maqsad esa “Yo‘lovchi vagonlarini ta’mirlash va qurish zavodi” AJ moliyaviy ahvolini tahlil qilishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Korxonaning moliyaviy barqarorligi moliyaviy holatning asosiy belgilaridan biridir. Moliyaviy barqarorlik korxonaning mulkka egalik qilish va undan foydalanish bo‘yicha moliyaviy mustaqilligini tavsiflaydi. Mustaqillikning ushbu darajasini turli mezonlar bo‘yicha baholash mumkin:

1. moddiy zaxiralarni barqaror moliyalashtirish manbalari bilan qoplash darajasi;
2. korxonaning to‘lov qobiliyati;

3. moliyalashtirishning umumiy manbalarida o‘z yoki barqaror manbalar soni;

Korxonaning moliyaviy barqarorligining asosiy vazifalaridan biri bu shakllanish manbalari bilan zahiralar mavjudligini tahlil qilishdir. Zahiralarni shakllantirishdan foydalanishni tavsiflash uchun har xil turdag'i manbalarni qamrab olishning turli darajasini aks ettiruvchi bir nechta ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

1. o‘z aylanma mablag’larining mavjudligi (o‘z kapitaliva aylanma mabla’lar qiymati o‘rtasidagi farqqa teng);

2. zahiralarni qoplashning o‘z va uzoq muddatli manbalarining mavjudligi (o‘z aylanma mablag’larini uzoq muddatli majburiyatlar miqdoriga ko‘paytirish hisobidan olinadi);

3. zahiralarni qoplashning asosiy manbalarining umumiy qiymati (o‘z va uzoq muddatli aylanma aktivlar hamda qisqa muddatli kreditlar va ssudalar yig’indisiga teng);

Zahiralarni shakllantirish manbalari mavjudligining uchta ko‘rsatkichi ularni shakllantirish manbalari bilan zahiralar mavjudligining uchta ko‘rsatkichiga mos keladi:

1. o‘z aylanma mablag’larining ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-)
2. o‘z va uzoq muddatli manbalarining ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-)
3. zaxiralarni qoplashning asosiy manbalarining ortiqcha (+) yoki tanqisligi (-)

Moliyaviy mustahkamlik (barqarorlik)ning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o‘lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini chegaralab olinadi. Bunga ko‘ra, V.G.Artemenko, M.V.Bellendirlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik korxona moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlash va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko‘rsatkich bo‘lib, korxona faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- bozor munosabatlarini har xil sharoitlarida ham faoliyat yurita olishi;
- korxona pul mablag’larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to‘lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta’minlay olishi;
- ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlik va to‘lovga qobiliyatlilik korxonaning muhim iqtisodiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Undagi ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag’lar o‘rtasidagi nisbat va o‘zaro bog‘lanish aniqlanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

1. Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag' ulushini qanchaligini hisoblashdir yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

a) korxonaning o'ziga qarashli mablag'/ jami mablag' (balans jami)

Bunda o'ziga qarashli mablag' qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi.

2. Korxonadagi o'ziga qarashli mablag' bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

b) qarzga olingan mablag'/ o'ziga qarashli mablag'

O'ziga qarashli mablag' ulushi ortgan sari moliyaviy barqarorlik kuchayib boradi.

3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsiyenti, ya'ni uzoq muddatli qarz mablag'larini korxonaning o'ziga qarashli va qarz mablag'lar summasining yig'indisiga bo'linadi yoki bu quyidagi tartibda aniqlanadi:

d) uzoq muddatga olingan qarz mablag' korxonaning o'ziga+uzoq muddatga olingan qarashli mablag' qarz mablag'

4. Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

e) o'ziga qarashli aylanma mablag' / o'ziga qarashli jami mablag'

5. Eskirishning jamlanish koeffitsiyenti yoki bu quyidagicha topiladi:

f) asosiy vositalarning eskirish summasi / asosiy vositalar + nomaterial aktiv Bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari bo'yicha topiladi.

6. Korxona mulki tarkibidagi asosiy vositalarning aniq qiymati koeffitsiyenti, bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagicha topiladi:

j) asosiy vositalar (qoldiq bahoda) / jami sof multk

7. Korxonadagi jami mulkning harakatchanligi (chaqqonlik) koeffitsiyenti, buni hisoblash quyidagicha bo'ladi:

k) aylanma mablag'lar (zaxira va pul mablag'lari) / jami multk (balans jami)

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

Korxonaning moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish vazifasi quyidagilardan iborat

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarining to'g'ri aniqlanganligini tekshirish

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisobot davridagi o'zgarishiga baho berish

Ushbu ko'rsatkichlarning har biriga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligini aniqlash va ularning sof foyda o'zgarishiga ta'sirini hisoblash

Rentabellik ko'rsatkichlariga baho berish

Uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni

Foya va rentabellik oshirishning ichki imkoniyatlarini axtarib toppish chora-tadbirlarini ishlab chiqish

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish ta'mirlash zavodi” Aksiyadorlik jamiyati, “Toshkent passajir vagonlarini ta'mirlash zavodi” Davlat unitar korxonasidan 1991 – yil 19 – nayobrdagi o'zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida”gi Qonun, o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 – yil 3 – mart kunidagi №119-sonli Qaroriga, shuningdek o'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo'mitasining 2002 – yil 28 – oktabr kunidagi №286-sonli Qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan

Xususan, “Toshkent yo'lovchi vagonlarni qurish va ta'mirlash zavodi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan yo'lovchi vagonlarni sifatli va zamonaviy tarzda ta'mirlash, har tomonlama jahon standartlariga javob beruvchi yangi vagonlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu yerda yo'lovchi vagonlarni tubdan qayta ta'mirlanadi va ichki qismi zamonaviy dizayn asosida bezatiladi.

Zavod 2001 yilning o'zidayoq loyihaga kiritilgan vagonlarni ta'mirlashning barcha turlarini o'zlashtirgan va bugungi kunga qadar 4754 ta vagon ta'mirlangan. Ma'lumki, zavod 2014-yilda metro vagonlarni ta'mirlash bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lgan edi. Bu yo'nalishda korxona mutaxassislari tomonidan bir qator izlanishlar olib borildi. Jumladan, eski metro vagonlari tubdan ta'mirlanib, yangi dizayn asosida o'zgacha qiyofaga olin kelindi. Buning natijasida “Toshkent metropoliteni” unitar korxonasi zamonaviy, keng va yorug' metro vagonlarga ega bo'ldi. Raqamlarga e'ribor qaratadigan bo'lsak, birgina 2018 yilda, temiryo'chilar tomonidan 6 ta metro poyezdi

(24 ta vagon) yangidan modernizatsiya qilindi va foydalanishga topshirildi. 2019- yilda 7 ta ana shunday poyezdi ( 28 ta vagon) tubdan ta`mirlandi va sinovdan o'tkazildi. Eng muhumi yaroqlik muddati tugagan vagonlar umri 15 yilga uzaytirilmoqda.

Mamlakatimiz tomonidan berilgan barcha imkoniyatlari miyozlarda foydalanib 2019-2021 yillar bo'yicha korxonani ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlarini 1-jadval ma'lumotlati yordamida tahlil qilish mumkin.

1-jadval

## Korxonaning iqtisodiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Tahlil qilinayotgan davr			o'zgarish,% 2021-yilga nisbatan	
	2019	2020	2021	2019	2020
1.Depo xajmida tamirlash (DR)	225	194	129	-42.7	66,5
2.Kapital ta`mirlash (KR-1)	151	110	53	-65	-51.9
3.Kapital ta`mirlash (KR-2)	1	2	1	0	-50
4.Texnik sog`lomlashtiruvchi ta`mirlash TO-3	-	80	106	100	132.5
5.Kapital tiklov ta`mirlash (KVR)	18	20	8	-55.6	-60
6. Jami vagon remonti	419	424	311	-25.8	-26.7
shu jumladan Export	11	17	13	118.1	-23.6
Konteyner	-	-	498	100	100
7.Yangi yo'lovchi vagonlarni qurish	39	51	16	-59	-68.7
shu jumladan Export	9	5	3	-66.7	-40

Ushbu jadvalda "Toshkent Yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi" AJning 3 yillik ko'rsatkichlari bo'yicha ya'ni korxonada 2019-2021 yillar mobaynida qancha vagon ta'mirlangani va export qilgani haqida yoritib berilgan va tahlil quyidagicha: 2021 yilga nisbatan depo xajmida tamirlash 2019 yilga nisbatan 96 ta kam ya'ni 42.7% ni tashkil qilsa 2020 yilda bu ko'rsatkich -65 ta 33.5% ni tashkil qilmoqda. Korxonada kapital ta'mirlash eskirgan va shikastlangan qismlarni almashtirish yoki tamirlash yo'li bilan vagonlarning yaroqliligi va xizmat muddatini tiklashuchun rejali tamirlash 2019 yil uchun 65%, 2020 yilda 51.9% da amalga oshirildi. Kapital tamirlash ikkita uslubda amalga oshiriladi (KR-2) Vagonlarni texnik sog`lomlashtiruvchi tamirlash 2019 yilda amalgaoshirilmagan lekin 2021 yilga kelib bu tamirlash ta vagonni tashkil qiladi. Joriy yillar oraliq'ida kapital tiklov tamirlash ko'rsatkichklari ham sezilarli darajada pasaygan bo'lib, jami vagonlar remonti 2021yilgakelib 113 taga kamaygan. Shu jumladan vagonlarni exporti 2021 yilga

nisbatan 2019 yilda 18% ga ko‘paygan bo‘lsada, ammo bu ko‘rsatkich 2020 yilda 25.4%ga kamaygan. Bazis yillarda konteyner ishlab chiqarish amalga oshirilmagan ammo joriy yilda 498 ta konteyner ishlab chiqarilgan. Yangi vagonlarni qurish 2020 yil ga nisbatan joriy yilda 35 ta kam qurilgan va uning exporti 40%gacha tushub ketgan.

2-jadval

“TYVQTZ” AJ ning yalpi foydasi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning tahlili ,mln so‘m

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2020-yil 2019-yilga nisbatan		2021- yil 2020-yilga nisbatan	
				Farqi	%	Farqi	%
1.Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	247839.5	106480.6	165305.1	-141358.9	-57	58824.5	55
2.Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	225452.5	96726.7	146200.2	-128725.8	-57	49473.5	51
3.Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda (1-2)	22387	9753.9	19104.9	-12633.1	56.5	9351	96

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda 2020-yilda 2019-yilga nisbatan -12 633.1 mln so‘m ya’ni 56.5% ga kamaygan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 9 351 mln so‘m ya’ni 96 %ga ko‘paygan. Bunga esa o‘z navbatida quyidagi omillar ta’sir o’tkazgan. Mahsulot sotishdan olingn sof tushum 2020-yilda 2019-yilga nisbatan -141 358.9 mln so‘m ya’ni 57%ga kamayagan bo‘lsa, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 58 824.5 mln so‘m ya’ni 55% ga ko‘payishi. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxining 2020-yilda 2019-yilga nisbatan -128 725.8 mln so‘m ya’ni 57% ga kamayishi, shuningdek, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 49 473.5 mln so‘m ya’ni 51 % ga ko‘payishi yalpi foydaning 2021-yilda 96% ga ko‘payishiga olib kelgan.

3-jadval

“TYVQTZ” AJning asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda (operatsion foyda)  
hajmining tahlili ,mln so‘m

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2020-yil 2019-yilga nisbatan		2021- yil 2020-yilga nisbatan	
				Farqi	%	Farqi	%
1.Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda	22387	9753.9	19104.9	-12633	-56.5	9351	96
2.Davr xarajatlari	17859.6	13585.2	18121.1	-4274.4	-24	4535.9	33
3.Asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari	3333.9	6386.6	2022.7	3052.7	91	4363.9	68.5
4.Asosiy faoliyatidan foyda (1-2+3)	1193.5	2554.4	3006.5	1360.9	214	452.1	17.7

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonaning asosiy faoliyatidan foydasi 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 1360.9 mln so‘m ya’ni 2,14 barobarga ko‘paygan, 2021-yilda esa 2020-yilga nisbatan 452.1 mln so‘m ya’ni 17.7% ga oshgan.

2020-yilda 2019-yilga nisbatan -12633 mln so‘m ya’ni 56.5% ga kamayganligi, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan esa 9351 mln so‘m ya’ni 96% ga ko‘payganligi o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Davr xarajatlarining 2020-yilda 2019-yilga nisbatan -4274.4mln so‘m ya’ni 24% ga kamaygan bo‘lsa, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan esa 4535.9 mln so‘m ya’ni 33% ga oshgan. Asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 91% ga ko‘paygan bo‘lsa, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan esa 68.5% kamaygan asosiy faoliyatidan foydaning oshishiga ta’sir o‘tkazgan.

4-jadval

Korxonaning foyda turlari dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	Tahlil qilinayotgan davr			o‘zgarish, %	
	2019	2020	2021	2020/2019	2021/2020
Sotishdan tushgan so‘tushum, mln. so‘m	247839.5	10648.6	165305.1	-57	55



Yalpi foyda	22387	9754	1910 4.9	-56.4	95
Asosiy faoliyatdan olingan foyda	7861.3	2555. 4	3006. 5	-67.5	18
Umumxo‘jalik faoliyat bo‘yicha foyda	9196.1	2745. 7	3823. 9	-70	40
Soliq to‘lagunga qadar foyda	9196.1	2745. 7	3823. 9	-70	40
Sof foyda	7737.7	2018. 6	2779. 2	-74	38

Ushbu jadvalda korxonaning 2019-2021 yillardagi moliyaviy natijalar ya`ni 3 yillik hisobotini yoritildi va har bir yilni bazis yil bo‘yicha taqqosladik. Bunda 2021yil bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘rinib turganidek sotishgan tushgan sof tushum 2019-yilga nisbatan 57% ga kamaygan, 2020-yilga nisbatan 55%ga oshgan, yalpi foyda 2019-yilga nisbatan 56.4% ga kamaygan, 2020-yilga nisbatan 95% ga oshgan, asosiy faoliyatdan olingan foyda 2019-yilga 67,5% ga nisbatan kamaygan, 2020-yilga nisbatan 18% ga oshgan. Hisobot yiliga kelib, korxonaning ijobiy ko‘rsatkichlarga erishgan.

### XULOSA

Foyda kompaniya faoliyatining yakuniy natijasidir. Tashkilotni rivojlantirish, uning xodimlari va egalari manfaatlarini ta’minalash jarayonida foydaning yuqori roli va samarali boshqaruvga bo‘lgan ehtiyojni belgilashda yordam beradi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash orqali korxonadagi ishlarning hozirgi holati haqida bilib olishingiz va uning istiqbollarini baholashingiz mumkin. Bunda asosiy ma’lumot manbai tashkilotning hisoboti bo‘lib, uni muntazam nazorat qilib borish lozim. “Toshkent Yo‘lovchi vagonlarini qurish va ta’mirlash zavodi” AJning 3 yillik foyda turlari dinamikasi natijasi shuni ko‘rsatdiki, 2019-yilda korxona foydasi yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich tushib ketgan va 2021-yilga kelib sezilarli darajada oshgan bundan kelib chiqadiki korxona hisobot yilida ijobiy natijani qayd etagan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Т.Ш.Шагиев, З.А.Сагдиллаева, И.Ф.Урманбекова. Теория экономического анализа. Учебник «Второе издание, переработанное и дополненное», Т.2017.-310с.
- 2.Прохоренко С.В. Конспект лекций по дисциплине «Финансовый анализ», М.2007.-75с.
- 3.А.Т.Ибрагимов. М.Ю.Рахимов. А.А.Абдуганиев. Т.Ш.Шогисов. Б.Ж.Хакимов. У.К.Якубов . Н.Ф.Ишонкулов. «Иктисадий таҳлил» фанидан маъруза матнлари туплами, Т-1999. -207с.